

**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va
uning tizimida o‘tkazilayotgan bayramoldi tadbirlar haqida**

MA'LUMOTNOMA

ULUG‘ MUTAFAKKIR BETAKROR MEROSI — YOSHLAR NIGOHIDA

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Kimyo-metallurgiya fakultetida 9-fevral — buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi.



Talabalarning Navoiy asarlari bo‘yicha bilim saviyasi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda 10 ga yaqin jamoa qatnashdi.

Yakunda “Muvaffaqiyat” jamoasi mutlaq g‘oliblikka erishgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rin “Movarounnahr qizlari” jamoasiga hamda faxrli uchinchi o‘rin “Kimyogarlari” jamoasiga nasib etdi. Mazkur jamoalar diplom va tashshakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi Geologiya fanlari universitetida Maʼnaviyat va maʼrifat kengashi yigʻilishi oʻtkazildi.

Majlisda universitetda ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini taʼminlash, talaba-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan dolzarb masalalar tanqidiy muhokama qilindi.



Yigʻilishda giyohvandlik va narkotik vositalarga qarshi kurashish holati, fevral oyini “Giyohvandlikka qarshi kurashish oyligi” sifatida belgilash hamda ushbu oylik doirasida reja-grafiklarni ishlab chiqish, talabalar oʻrtasida sportning bahorgi mavsumi (2-tur) doirasida “Talabalar ligasi” sport musobaqalarini tashkil etish, ijara xonadonlari va talabalar turar joylarida giyohvandlikka qarshi targʻibot ishlarini kuchaytirish, ogohlantiruvchi eslatmalarni joylashtirish masalalari muhokama qilindi.



FEVRAL — “YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND VOSITALARNING TARQALISHIGA QARSHI KURASH OYLIGI”



Mazkur oylik doirasida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi. Suhbat davomida giyohvandlik va psixotrop moddalarning inson salomatligiga va jamiyatga yetkazadigan zararlari, shuningdek, ushbu illat bilan bog‘liq jinoyatlar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Universitet mas'ullari ham so‘zga chiqib, talabalarga zararli odatlar ta’siriga tushib qolmaslik, o‘z hayoti va taqdiriga mas’uliyat bilan yondashish zarurligi alohida ta’kidlandi. Yoshlar ongida huquqiy madaniyatni oshirish, ularni giyohvandlik kabi xavfli illatlardan asrash va yetuk avlodni tarbiyalashga qaratilgan bunday tadbirlar davom ettirilmoqda.

“Jaholatga qarshi ma’rifat!” – mahalla va yoshlar hamkorligidagi davra suhbat



Geologiya fanlari universitetining bir guruh talaba yoshlari ishtirokida “Mahalla yettiligi” doirasida Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Olimlar” mahalla majlislar zalida mahalla hamkorligi asosida “Jaholatga qarshi ma’rifat!” mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Davra suhbatida Toshkent Islom akademiyasi mutaxassislari, GFU yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi mas’ullari, psixolog, mahalla faollari hamda talaba yoshlar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida yoshlarni ma’rifatli fikrlashga yo‘naltirish, jaholat va turli salbiy g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, shuningdek, mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini mustahkamlash masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Bunday uchrashuvlar yoshlarning ongida ma’naviy barkamollik, ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqilligimiz asoschisiga ehtirom: Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi xodimlari Birinchi Prezidentimiz xotirasini yod etdilar



Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludi munosabat bilan Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi xodimlari Mustaqilligimiz asoschisi mangu qo‘nim topgan majmuaga tashrif buyurdilar.

Ziyorat davomida xodimlar birinchi Prezidentimizning xalqimiz va davlatimiz oldidagi beqiyos xizmatlarini yodga olib, u kishining porloq xotirasiga ehtirom ko‘rsatdilar. Hazrati Xizr majmuasi yonida barpo etilgan ushbu tabarruk maskan yurtdoshlarimizning doimiy ziyoratgohiga aylandi.

NAVOIY G‘AZALLARI VA RUBOIYLARI KIMYO-METALLURGIYA FAKULTETI FAOL TALABALARI TALQINIDA

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti boshlang‘ich tashkilotining Kimyo-metallurgiya fakulteti

koordinatori tomonidan Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy chellenj tashkil etildi.

Tyutorlar tomonidan tashkil etilgan mazkur tashabbus yoshlar o'rtasida Navoiy merosiga bo'lgan e'tibor va qiziqishni yanada kuchaytirish, mumtoz adabiyotimizga hurmat ruhini mustahkamlash, talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishga qaratilgan.



Chellenj jarayonida talaba yoshlar tomonidan Navoiy asarlari durdonalaridan namunalar ijro qilinib, ulug' merosning bugungi avlodlar hayotidagi dolzarbligi yana bir bor namoyish etildi.



MATBUOT ANJUMANI: ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 585 YILLIGI NAVOIY VILOYATIDA QANDAY NISHONLANMOQDA?

Yoshlar markazi binosida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda Navoiy viloyati hokimligi vakillari, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, adabiyotshunos olimlar, ijodkorlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori B.Mardonov ham ishtirok etdi va universitetda o'tkazilayotgan keng ko'lamli jarayonlar, ilmiy-amaliy anjumanlar haqida ma'lumot berdi. Tadbir savol-javob va badiiy chiqishlar tarzida davom etdi.

Anjumanda jurnalistlarga mas'ullar tomonidan mazkur sana yuzasidan tashkil etilayotgan loyihalar, tashabbuslar, Navoiy viloyatida buyuk shoir merosini keng targ'ib etishga qaratilgan tadbirlar haqida axborot taqdim etildi.



NDKTU TALABALARI: “BIZ SOG‘LOM TURMUSH TARZI TARAFDORIMIZ!”



Universitet sport majmuasida “Biz sog‘lom turmush tarzi tarafdorimiz!”, “NDKTU talabarlari gihoyvandlikka qarshimiz!” kabi shiorlari ostida Kimyo-metallurgiya fakulteti talabarlari ishtirokida “5000 qadam” aksiyasi tashkil etildi.

Mazkur aksiya doirasida talabalar jismoniy faollikni oshirish, sport orqali sog‘lom hayot tarzini kundalik odatga aylantirish hamda bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlab, belgilangan masofani birgalikda bosib o‘tdilar.

Tadbir davomida loyiha ishtirokchilari sportning yoshlar hayotidagi o‘rni va gihoyvandlikning inson salomatligi hamda kelajakka yetkazadigan salbiy oqibatlari haqida tushunchalarga ham ega bo‘ldi. Bunday sport-sog‘lomlashtirish aksiyalari yoshlar o‘rtasida profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Milliy armiya – Ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!

Kon-geologiya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi hamda 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Milliy armiya – Ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida ishchi-xodimlar uchun bayram tadbirlari tashkil etildi, harbiy orkestr sadolari

ostida korxona ishchi-xodimlariga vatanparvarlik ruhi, ko'tarinki kayfiyat va bayram shukuhi ulashildi.

Vatanparvarlik oyligi doirasida xodimlarga va aholiga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida vazirlik binosining ichki va tashqi qismlarida qisqa metrajli video roliklar monitorlarda namoyish qilindi hamda reklama bannerlari joylashtirildi.

Madaniyat va ma'rifat markazi tomonidan 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan taqdim etilgan taqdimot materiallari vazirlikning ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha sahifalarida, rasmiy veb saytida joylashtirildi, keng targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.





Geologiya fanlari universitetida tahsil olayotgan xorijiy talabalar Amaliy san'at muzeyida bo'ldilar



Talabalar va san'at: Ilhom va ijod uchrashuvi

Geologiya fanlari universitetida o'zbek estrada san'atining yorqin namoyandasi — Akbar Atamuhamedov bilan unutilmas ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

San'atkor bilan talabalarning uchrashuvi juda katta ma'naviy va ijodiy ahamiyatga ega. Bunday uchrashuvlar hayotiy tajriba va saboqlar, ilhom va motivatsiya, ochiq muloqot va fikr almashinuvi, milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy faollik va birdamlik kabi muhim jihatlari bilan foydali hisoblanadi.

San'atkor o'z hayot yo'li, muvaffaqiyatga erishishdagi qiyinchiliklar va yutuqlar bilan o'rtoqlashib, yoshlar uchun qimmatli tajriba manbaiga aylanadi.

Milliy san'at namoyandalari bilan uchrashuv yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va madaniy merosga bo'lgan mehrni kuchaytiradi. Bunday tadbirlar talabalarni jipslashtiradi, ijtimoiy faollikni oshiradi va universitet hayotini yanada mazmunli qiladi.



San'atkor bilan uchrashuv — bu faqatgina musiqa emas, balki yoshlar qalbiga ilhom, ishonch va katta orzular urug'ini qadaydi.



Geologiya fanlari universitetida QVZ final bosqichi yuqori saviyada bo'lib o'tdi

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi Geologiya fanlari universitetida Yangi yil bayrami munosabati bilan talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida QVZ (Quvnoq va zukko yoshlar) tanlovining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Mazkur tantanali tadbirda O'zbekiston media ayollar klubi raisi M.Asqarxo'jayeva, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan mashhur bloger Oybek mehmon sifatida ishtirok etdilar.

Final bosqichida ishtirok etgan jamoalar sahna madaniyati, hazil-mutoyiba, ijtimoiy mavzularni yoritishda o'zlarining topqirlik hamda aktyorlik mahorati bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. QVZ chiqishlari tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat ulashib, tadbir davomida zalda samimiy kulgi va olqishlar yangrashiga sabab bo'ldi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan jamoalar Universitet rektori tomonidan tantanali ravishda taqdirlandi. G'oliblarga maxsus vaucherlar topshirilib, ularning ijodiy mehnati va faol ishtiroki yuqori baholandi.

QVZ finali Geologiya fanlari universiteti yoshlarining nafaqat bilimli, balki zukko, faol va ijodkor ekanini yana bir bor namoyon etdi. Bunday tadbirlar talabalarining Universitet hayotidagi faolligini oshirish va ularni yangi yutuqlarga ruhlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



NAVOIYNING YUKSAK MA'NAVIY MEROSI — YOSHLAR NIGOHIDA

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Agromuhandislik va kommunikatsion texnologiyalar fakulteti faol talabalari tomonidan Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan badiiy kecha o'tkazildi.

Tadbirni viloyat Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi rahbari R.Hayitov ochib berar ekan, buyuk ajdodimiz dahosini ulug'lash asnosida shoir ijodini targ'ib etish, milliy o'zligimizni chuqur anglash, allomaning yaratgan betakror ilmiy-ijodiy merosini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda muhim vazifa ekanligini ta'kidladi.

Shundan so'ng talabalar tarixiy qahramonlar siymosida g'azal va ruboiylar ijro etishdi. Talabalarning har bir chiqishlari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Tadbir Navoiyning g'oyaviy-ma'naviy merosini zamonaviy avlod ongiga singdirishda muhima ahamiyat kasb etdi.

ULUG' MUTAFAKKIR IJODIGA BAG'ISHLANGAN "ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINI O'TKAZILDI

"Farhod" madaniyat saroyi kutubxonasi filialida 9-fevral — buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi.

Mazkur tadbir yoshlar o'rtasida Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, mumtoz adabiyotimizning boy merosini chuqurroq o'rganish, talabalarning bilim saviyasi, keng dunyoqarashi hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratildi.



Mazkur bellashuvda oliy ta'lim muassasalaridan 10 ga yaqin jamoa ishtirok etib, yoshlar buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi, asarlari mazmuni, falsafiy qarashlari hamda o'zbek adabiyoti tarixiga oid savollar yuzasidan o'z bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon etdilar.

Tadbir yakunida yuqori natijaga erishgan g'olib va sovrindor jamoalar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.